

УДК: 519.101

TALABALARNI TO‘GARAKLAR ORQALI IJODIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING BUGUNGI KUNDAGI XOLATI

Feruz Xusanova,
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi E-mail-
feruza.xusanova81@mail.com

Аннотация

Ushbu maqolada talabalarni to‘garaklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirishning bugungi kundagi xolati va ularning yechimlari ko‘rsatilgan, bugungi kunda yangidan yangi mutaxassisliklar iqtisodiyotga, ayniqsa nana texnologiya, robototexnika, axborot kommunikatsion texnologiyalar, gen muhandisligi va boshqa sohalarda kirib kelayotgani, ularning ta’lim jarayoniga ahamiyati ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: ijodiy faollik, nana texnologiya, robototexnika, axborot kommunikatsion texnologiyalar, gen muhandisligi, motivatsion-emotsional, irodaviy-kognitiv, faoliyatli-ijodiy.

СОВРЕМЕННАЯ СИТУАЦИЯ ПО РАЗВИТИЮ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ КРУЖКИ

Феруза Хусанова, преподаватель Наманганского государственного
университета E-mail-feruza.khusanova81@mail.com

Абстрактный

В данной статье показана современная ситуация развития творческой активности студентов через клубы и их решения. Сегодня в экономику входят новые специальности, особенно современные технологии, робототехника, информационно-коммуникационные технологии, геновая инженерия и другие важные для процесса лим области. Показано.

Ключевые слова: творческая деятельность, современные технологии, робототехника, информационно-коммуникационные технологии, геновая инженерия, мотивационно-эмоциональная, волево-познавательная, активно-творческая.

CURRENT SITUATION OF STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY DEVELOPMENT THROUGH CIRCLES

Feruza Khusanova, teacher of Namangan State University E-mail-
feruza.khusanova81@mail.com

Abstract

This article shows the current situation of developing students' creative activity through clubs and their solutions. Today, new specialties are entering the economy, especially modern technology, robotics, information and communication technologies, genetic engineering, and other fields. importance to the lim process is shown.

Key words: creative activity, modern technology, robotics, information and communication technologies, genetic engineering, motivational-emotional, volitional-cognitive, active-creative.

KIRISH

Bugungi kunda XXI asr talablariga javob beradigan kadrlar tarbiyasiga maxsus e'tibor talab etilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari talabalarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish umumiy pedagogik jarayonning eng muhim va ahamiyatli bo'g'inlaridan sanaladi.[1] Talabalarda to'garaklar orqali ijodiy faollik masalalari zamonaviy davr uchun dolzarb pedagogik talablardan biridir.

Pedagogik ilm nazariyasi va amaliyoti nuqtai nazaridan talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirishning yaxlit pedagogik andozasi ishlab chiqish bugungi kunda talabalar zamonaviy jamiyat uchun ijodiy faolliklarini ko'rsata olishlari zarur. Bu esa universitetlar istiqboliga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

N.V.Kuz'minaning fikricha, ijodiy va mustaqil fikrlash o'rtasidagi farqning muhimligi shundaki, ijodiy fikrlash mustaqil fikrlashdir, ammo har qanday faol fikrlash ham mustaqil fikrlash ham o'z navbatida ijodiy fikrlash bo'la olmaydi. Talabalarning ijodiy fikrlashining muhim qismlaridan biri – bu intutsiya (fahm)dir.

Intutsiya tushunchasi turli fanlarda qo‘llaniladi: falsafa, mantiq ilmi, matematika, psixologiya fanlari mazkur tushunchaga turlicha ma’no kiritishmoqda.


Bugungi kunda yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda talabalar ongiga milliy g‘oyaning asosiy yo‘nalishlarini singdirish badiiy ta’lim vositalaridan, usullaridan samarali foydalanish, larning ma’naviy-siyosiy dunyoqarashlarini shakllantirish bilan birga, ularda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

S.L.Rubinshteyn qobiliyatlar shaxsdagi umumlashgan ruhiy faoliyatlar tizimiga birlashtirilgan, qobiliyatlarning ko‘nikmalardan farqi harakatlar usullarini mustahkamlash natijasi emas, balki harakatlar orqali boshqariladigan faoliyatlarning ruhiy jarayonlaridir deb hisoblaydi.[8]

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Bizning fikrimiz bo‘yicha, mana shunday muammolarning oqilona yechimi keng ijtimoiy makonda o‘z o‘rniga ega bo‘lishini ta’minlaydigan tamoyillardan biri – ta’lim-tarbiya jarayonda to‘garaklar orqali ijodiy faolligini rivojlantirishdir. So‘nggi yillarda mamalakat ijtimoiy-iqtisodiy sohasining dunyo hamjamiyati bilan chuqur integratsiyalashuvi oqibatida mutaxassisliklar klassifikatorga juda katta o‘zgarishlar kiritildi, ammo bugungi kunda yangidan yangi mutaxassisliklar iqtisodiyotga, ayniqsa nana texnologiya, roboto-texnika, axborot kommunikatsion texnologiyalar, gen muhandisligi va boshqa sohalarda kirib kelmoqda. Shunga ko‘ra, bugungi kunda oliy ta’limda mutaxassisliklarning jamiyat hayoti va uning iqtisodiyotiga kirib kelish jarayoni to‘garaklar orqali ijodiy faollikni rivojlantirish dolzarflik kasb etadi. Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng qo‘llash orqali talabalarni qobiliyatlirga qarab individual rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va uslubiy materiallarni doimiy takomillashtirib borish, talabalarning ijodiy ishlarini ommalashtirish, shu jumladan talabalarning to‘garaklar orqali ijodiy faolligini oshirishga yo‘naltirishning muhim omili sifatida ularning axloqiy, aqliy va jismoniy jihatdan taraqqiy etishiga xizmat qiladi. Aynan ijodiy faoliyatga samarali tayyorlangan talabalar iqtidorlilikning quyidagi mezonlariga javob beradi: (1-rasm)


Research Science and
Innovation House



1-rasm. Ijodiy faoliyatga samarali tayyorlangan talabalar iqtidorining mezonlari.

Ijodiy jarayon o‘zida ikkita muhim belgini aks ettiradi. Ulardan biri – intuitsiya (zehn, fahm-farosat), ikkinchisi – intuitiv fikrlash jarayonida qo‘lga kiritilgan natijani rasmiylashtirishdir. Faqat uning samarasi anglangan, intuitiv va mantiqiy fikrlash birligi sifatida ishlab chiqilganlik bilan tavsiflanadi. Ijodiy jarayon turli darajada insonning ijtimoiy tashabbuskorligining barcha ko‘rinishlari, asosan, uning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq shakllarida mutlaq o‘z aksini topadi. (2-rasm)

Research Science and Innovation House



2-rasm. Ijodiy faoliyati shakllari.

TAKLIF VA NATIJALAR

So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, filologiya talabalari va yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ijodiy faoliyatga tayyorlash va yo'naltirib o'qitish, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizasiya qilish, talabalarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda.

Talabalarning to'garaklar orqali bilish jarayoniga ijobiy emotsional yo'nalganlikning qaror topganligi, o'quv vazifalarini hal etishda odatiy o'quv harakati usullarini bartaraf etishga intilish, muammo yechimini topishning nostandart metod va usullarini izlash, kasb – hunarga oid bilish faoliyatidagi qat'iylik, ijodiy bilish faoliyatining natijaviyligi bilan tavsiflanuvchi shaxs xususiyatini o'zida aks ettiradi.

Talabalarning to‘garaklar orqali ijodiy faolikka maqsadli yo‘naltirish mazmuni motivatsion-emotsional, kognitiv-irodaviy va faoliyatli-ijodiy komponentlarni o‘zida aks ettiradi.

- Tahlil natijalari asosida larning ijodiy faoliyatini tashkil etishning quyidagi mezonlari aniqlashtirildi:

motivatsion-emotsional, irodaviy-kognitiv, faoliyatli-ijodiy.

- Motivatsion-emotsional mezon ko‘rsatkichlari:

- Faoliyatda ishtirok etish istagi, onglilik, ko‘proq bilishga intilish, ijobiy emotsional qayg‘urish, ishtiyoq, faoliyatdan qoniqish hissi. Irodaviy mezon ko‘rsatkichlari: qat‘iylik, bilishga yo‘nalganlik, jur‘atlik. Bilishga doir mezon ko‘rsatkichlari: mo‘tadillik, moslashuvchanlik, ishchanlik, fikrlashning individual o‘ziga xosligi. Faoliyatli-ijodiy mezon ko‘rsatkichlari: jadallik, ijodiy bilish faoliyatining natijaviyligi.

Mazkur mezonlar asosida oliy ta‘limda to‘garaklar faoliyatini tashkil etish mezonlariga mos reproduktiv, izlanishli-evristik, ijodiy-tashabbuskorlik darajalar aniqlandi. Reproduktiv daraja bilishga qiziqishning pastligi, o‘quv jarayoniga ichki qiziqishning mavjud emasligi, ijodiy vazifalarni hal etishda irodaviy xususiyatlarning yetarli ifoda etilmasligi, o‘qituvchi rahbarligida harakatlanish layoqati bilan tavsiflanadi. Izlanishli-evristik darajada bilishga qiziqish o‘quv motivatsiyasi tuzilmasida o‘rtacha o‘rinni egallaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Thlillar jarayonida barqaror bilishga qiziqish, savollar tuza olish, o‘qituvchiga fikr-mulohaza bilan murojaat qilish ko‘nikmalariga egalikni o‘zida aks ettiradi. Talabalarning to‘garaklar orqali o‘z kasbiga qiziqish, topshiriqlarini hal etish istagi yuqori tarzda namoyon bo‘ladi. Davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri – uzluksiz ta‘lim tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishidir. Xulosa tariqasida inson butun umri davomida ijodiy salohiyatini rivojlantirishi, yangi bilimlarni egallashi va egallagan malakalarini oshirishi lozimligini nazarda tutadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: O‘zbekiston, 2016 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonlari.
3. Andreev V.I. Oliy ta’lim pedagogikasi. – Qozon, 2006 yil, 499 bet
4. Kudryavtsev V.T. O‘quv va ta’lim sohasidagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari. – M. 2008 yil
5. Stolyrenko D. Pedagogik psixologiya.-, 2008., 591 p
6. Markova A.K. Talabalarda bilim olishga qiziqishni shakllantirish.-B.17. – saytning elektron resursi http://www.koob.ru/age_psychology/
7. Г.Н.Ибрагимова. Олий таълим тизимида интерфаол технологиялар воситасида талабалардаги ижодий фикрлашни ривожлантириш // Замоनावий таълим. 2017.№4. — Б. 30
8. Rubinshteyn S.L. Jamoada ruxiy tarbiya // Toshkent, 1994. – 172 b
9. [Зарубежная лингвистика и лингводидактика \(inscience.uz\)](http://inscience.uz)

Research Science and Innovation House